

PSIXOLOGIK XIZMAT VA UNING TURLARI. PSIXOANALIZ TA'LIMOTI VA TIBBIYOTDAGI O'RNI

Olimova Dano Shakirovna

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri p.f.n dotsent.*

Masharipov Eldorbek Yarashboy o'g'li

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Stomatologiya yo'nalishi magistranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologik xizmat tushunchasi, uning asosiy maqsad va vazifalari, amaliyotdagi asosiy turlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy psixologik yondashuvlardan biri bo'lgan psixoanaliz ta'limoti, uning asoschilari, asosiy tamoyillari va bugungi tibbiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola psixologik xizmat ko'rsatishning amaliy shakllari hamda bemorlar bilan ishlashda psixoanalizning qo'llanilishi misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik xizmat, psixologik yordam, psixoanaliz, Sigmund Freyd, ruhiy salomatlik, psixoterapiya, tibbiyotda psixologiya.

Bugungi kunda inson salomatligi tushunchasi faqat jismoniy holat bilangina emas, balki ruhiy barqarorlik bilan ham bevosita bog'liq. Shu sababli tibbiyot va ta'lim sohalarida psixologik xizmatlarning ahamiyati ortib bormoqda. Psixologik xizmat - bu shaxsning psixologik holatini aniqlash, qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va muammolarini bartaraf etish maqsadida ko'rsatiladigan professional yordamdir.

Shuni ham aytish joizki, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida olib borilayotgan izchil islohotlar insonning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon insonning ichki dunyosini chuqurroq anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda shakllanayotgan yangicha ijtimoiy-madaniy muhit, ma'naviy qadriyatlarning yangilanishi insoniyatning ruhiy va intellektual boyliklariga bo'lgan munosabatda ham tub burilishlarga olib kelmoqda.

Shunday ijobiy o'zgarishlar pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy asoslarini boyitmoqda, ularning obyekti va predmeti doirasini yanada kengaytirmoqda. Inson — biologik va ijtimoiy jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab mavjudot sifatida o'rganiladi. Uning tabiati bir vaqtning o'zida tug'ma psixofiziologik xususiyatlar (masalan, sezgi a'zolarining ishlashidagi farqlar, nerv tizimi tuzilishidagi

individual o'ziga xosliklar) hamda ijtimoiy muhitda shakllanadigan axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va madaniy odatlar orqali namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan olib qarganda, zamonaviy psixologik yondashuvlar, jumladan, psixoanalitik nazariya, inson xulq-atvori va ruhiy holatini tushunishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu ta'limotga ko'ra, insonning kundalik hayotdagi qarorlari, harakatlari va his-tuyg'ulari ko'pincha ongsiz darajada shakllanadigan motiv va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'ladi. Ong osti jarayonlarining shaxs rivojiga va ruhiy barqarorlikka ta'siri, ayniqsa, bolalikda olingan tajribalar bilan uzviy bog'liq. Ana shunday yondashuvlar tufayli psixologiya inson tabiatining chuqur qatlamlarini ochib berishga, shaxsni anglashga va uni sog'lom ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Psixologik xizmatlar turli shakllarda tashkil etiladi va quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- Konsultativ xizmat – shaxsga muayyan hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlashga yordam beruvchi suhbatlar.
- Diagnostik xizmat – shaxsning psixik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan testlar, so'rovnomalar orqali olib boriladi.
- Korreksion xizmat – mavjud psixologik muammolarni bartaraf etish, xatti-harakatdagi buzilishlarni tuzatish.
- Psixoprofilaktika – stress, depressiya kabi muammolarning oldini olishga qaratilgan faoliyatlar.

Psixoanaliz – ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta'limot. U XX asr boshlarida taniqli nemis olimi Zigmund Freyd (1856–1939) tomonidan ishlab chiqilgan. Psixoanaliz asosini inson xulqining negizini lazzat olishga intilish (libido), ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan jinsiy mayl tashkil etadi, odam xulqini onglilik emas, balki ongsizlik boshqaradi, degan g'oya tashkil etadi. Z.Freyd dastavval onglilik, yolg'onchilik va ongsizlikdan iborat psixikaning uch bosqichini tadqiq etdi. Oldingi ikki bosqichdan farq qiluvchi psixik darajani senzura deb atadi. Odatda, senzura ikkita funksiyani bajaradi:

1) inson tomonidan o'zining shaxsiy his-tuyg'ulari, mulohazalari va xohishlarini muhokama qiladi, ularni ongsizlik holatidan siqib chiqaradi;

2) onga yorib kirishga intiluvchi faol ongsizlikka qarshilik ko'rsatadi.

Freyd inson ongini uch qatlamga — ongli, ongoldi va ongsiz qismlarga ajratgan. Unga ko'ra, insonning aksariyat xatti-harakatlari ongsiz motivlar ta'sirida amalga oshiriladi.

Freydning izdoshlari Karl Yung, Alfred Adler, Erik Erikson kabi psixologlar psixoanalizni yanada rivojlantirib, unga o'ziga xos yondashuvlarni qo'shganlar.

Bugungi kunda psixoanaliz psixoterapiya va klinik psixologiyada muhim o'rin egallaydi. Psixologik travmalar, shaxsiy inqirozlar, depressiya, nevrozlar,

shaxsiyat buzilishlarida qo'llaniladigan samarali usullardan biri sifatida tan olinadi.

Klinik psixologlar va psixoterapevtlar bemorlar bilan ishlashda psixoanalitik yondashuv asosida:

- Ongsiz istaklarni aniqlash
- Bolalikdagi travmalarni tahlil qilish
- Ichki ziddiyatlarni anglash va bartaraf etishga yordam beradi.

Shuningdek, dori vositalaridan tashqari ruhiy holatni tuzatish uchun nofarmakologik yondashuv sifatida ham keng qo'llaniladi.

Inson ruhiyatining sog'lom shakllanishi uchun uni tashqi salbiy omillardan himoya qiladigan turli mexanizmlar mavjud bo'lib, bu tizimlar asosan tug'ilish davridan boshlab faoliyat ko'rsata boshlaydi. Psixik himoya mexanizmlari shaxsiyatni barqarorlashtirish, tashqi ta'sirlar oldida ruhiy muvozanatni saqlab qolishga yordam beradi. Ammo shaxs rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan oilaviy muhit va ijtimoiy sharoitlar salbiy tus olganda, ushbu himoya tizimlarining izchil ishlashi buzilishi mumkin. Oilada doimiy ziddiyatlar, sovuq munosabatlar, befarqlik yoki haddan tashqari qattiqqo'llik hukm sursa, bu holat shaxsiyat shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli psixik buzilishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Psixoanaliz shuningdek, shaxsning istaklari, motivlari, impulsleri, fantaziyalari va emotsional rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda kuzatish va o'rganish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali inson psixikasining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi va chuqur tahlil qilinadi. Bundan tashqari, psixoanalitik nazariya inson xulq-atvorining psixologik asoslarini tahlil qilish, oilaviy munosabatlar, nikohdagi muammolar, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning psixodinamik sabablarini tushunish hamda bashorat qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.¹

Xulosa qilib aytganda, psixologik xizmatlar shaxs ruhiy salomatligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Psixoanaliz esa inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi nazariya sifatida tibbiyot va psixoterapiyada o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bugungi jamiyatda psixologik madaniyatni oshirish, bu sohadagi mutaxassislar faoliyatini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Freyd S. Psixoanalizga kirish. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2001.
2. Yusupova G.X. Psixologik xizmat asoslari. Toshkent: Fan, 2018.
3. Karimova L.M. Klinik psixologiya asoslari. Toshkent, 2020.
4. Jung C.G. Ong va ongsizlik nazariyalari. Moskva: Eksmo, 2015.

¹ Jung C.G. Ong va ongsizlik nazariyalari. Moskva: Eksmo, 2015.